

BOLALIKNING SAMIMIY QAHRAMONI-USTOZ

Toxirova Madina Alisher qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

mtoxirova855@gmail.com +998990325990

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarning hayotida ustozning o'rni, ularning tarbiyasiga, tafakkuriga va kelajakdagi shakllanishiga bo'lgan ta'siri yoritilgan

Kalit so'z: Muallim, bola tarbiyasi, ustozning o'rni, o'qituvchi va o'quvchi munosabati

Har bir insoning hayotida iz qoldirgan muhim kishilar bo'ladi. Bu izlar bolalikda, beg'ubor yillarda, ko'pincha qadrlı insonlarimiz bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni ota-onamiz hamda ustozlarimiz. Ota ona bolaning ilk tarbiyachisidir, ustoz esa bilim va hayot yo'lini ko'rsatuvchi aziz insondir. Bola ilk qadamlarni oilada qo'yadi, ammo dunyoqarashi, tafakkuri va orzu-umidlari ko'pincha ustoz qo'lga ishonib topshiriladi. Shu sababdan ham bolalar hayotida ularning o'rni beqiyosdir.

Ustoz — bu oddiy dars beruvchi emas, balki butun bir avlodni tarbiyalaydigan, yuraklarga iz qoldiradigan zotdir. Ustozning har bir so'zi, harakati, hatto jim turishi ham bolaning ruhiy olamiga ta'sir qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich yoshdagi bolalar ustozni ota-onasidan keyingi eng muhim shaxs deb qabul qiladi. Bolalar ustozini doim kuzatadi. u qanday yuradi, qanday so'zlaydi, qanday kiyim kiyadi-bularning barchasini bolaning ong ostiga singib boraveradi.

“Ustozsiz ilm bo'lmaydi, ilm-nur, ustoz-yo'l”, : Abay Qunanboyev.

Bejizga Abay Qunanboyev ustoz nur sochuvchi yo'lchi deya aytmagan. Aynan u bolaning “bilmayman” degan qorong'u holatidan “tushundim” degan holatiga olib boradi. Buning uchun esa ustoz sabr, sevgi va fidoyilik bilan harakat qilishi lozim bo'ladi. Yaxshi ustoz bola qalbiga so'z bilan emas, amali bilan kiradi.

Gapimning isboti o'laroq men universitetim tomonidan amaliyotga borganimda bir ustoz har bir Bolaga o'z ismi bilan murojaat qilardi. Hatto eng jim, tortinchoq bolalar ham u kishi bilan o'z fikrini bemalol ayta olar edi. Chunki ustoz ularni tinglardi, “sen tog'ri fikrlayapsan”, “sening gaping muhim” deb ularni ishontirardi. Natijada butun sinfda o'ziga bo'lgan ishonch uyg'onib, o'quvchilar darsdan zavq olar edilar.

Ustozning ta'siri bir bola bilan tugamaydi. Har bir o'quvchi-bir kelajak. Kelajakda kimdir shifokor, kimdir muallim va yana kimdir davlat arbobi bo'ladi. Ularning har birini orqasida bolaligida yo'l ko'rsatgan ustozining siyrati turadi.

Albatta, har bir ustoz mukammal emas. Ustozda ham insoniy zaifliklar bo'lishi mumkin. Ba'zida beparvolik, muomala madaniyatining pastligi yoki faqat "a'lochilar" bilan ishlash holatlari kuzatiladi. Bu esa qolgan o'quvchilarga rag'bat emas aksincha "keraksizlik" hisini yuzaga keltiradi. Ba'zan o'qituvchi o'z kasbini sevmaydi, ishini majburiyat deb ko'radi. Bu holat eng avvalo bolaning qalbiga zarar yetkazadi. Aksar holatda esa bolalar bilan qo'pol, befarq bo'ladi aynan mana shunday holatlar bolalarning hafa bo'lishiga olib keladi. O'qituvchilar honada pashsha uchgani eshitilishi kerak emas deyishadi, ammo, buni Finlandiya ustozlari hato hisoblashadi, hattoki eng yomoni deya fikr bildirishadi.

Ibn Sino aytgan edi: "O'qituvchi-davolovchi, talaba-bemor. Davo esa-ilm". Agar Muallim "davolash" o'rniga ruhni ranjitsa, bu jarayon ilm emas, ruhiy jarohatga aylanadi. Misol uchun, maktabda o'quvchisidan jaxli chiqqan, uni mimikasi bilan kamsitgan, nojoyi hatti harakatlari uchun tashqariga haydagan Muallim, bolaga o'zini qadrsiz his qildirib, ruhini sindiradi. Uy vazifasini bajarmagan bolaning sinfda do'stlari ko'z o'ngida kamsitilishi jazo emas balki psixologik zo'ravonlik hisoblanadi*.

Har bir bola e'tiborli bo'lishni xohlaydi. Ayniqsa, mehrga zor, uyida iliqlik topa olmayotgan bolalar uchun ustozning har bir so'zi oltindek. Ustozning har bir befarqligi, har bir achchiq so'zi-qog'ozga tushayotgan qora dog'dek. Abdulla Avloniy ogohlantiradi: "Bolaga beriladigan har bir notog'ri tarbiya-kelajakdagi jamiyatga berilgan zarar." Salbiy ustozlar Bolani nafaqat bilimdan, balki orzu va ishonchdan

*Jazosiz tarbiya Adem Gunesh ham ajratadi. Muallimdan chiqqan har bir so'z bola uchun haqiqatdek tuyiladi.

Ustoz avvalo inson keyin o'qituvchi bo'lishi kerak. Muallim nafaqat fan o'rgatadi, u bola qalbi bilan ishlaydi. Shuning uchun ustoz eng avvalo insoniy fazilatlar bilan qurollanishi zarur bo'ladi. Har bir bola bir dunyodir. Ustoz esa har bir dunyo bilan ishlashi, shug'ullanishi, alohida yondashishi kerak bo'ladi. Konfutsiy: "O'rgatmoqchi bo'lgan kishi avvalo o'rganmog'i kerak". Aynan mana shu fikrga qo'shilgan holda zamonamizdagi ustozlar har sohada o'zini boyitishi kerak va zarur.

Xulosa

Ustoz — oddiy dars beruvchi emas, balki bir qalbni shakllantiruvchi, hayotga yo'l ko'rsatuvchi, orzularni uyg'otuvchi insondir. Har bir bolaga ustoz orqali yangi dunyo ochiladi. Uning mehrli so'zi, sabr bilan tinglashi, ko'ngilli yondashuvi — bu bola uchun eng kuchli motivatsiya, eng barqaror ishonch bo'lib xizmat qiladi. Ammo afsuski, har doim ham bolalar mehribon, e'tiborli ustozlarga duch kelmaydi. Shuning uchun ustozlik kasbi nafaqat bilim, balki qalb, vijdon va doimiy o'z ustida ishlashni talab qiladi. Har bir ustoz shuni unutmasligi kerakki — bugun u dars o'tayotgan o'quvchi ertaga jamiyatning bir bo'lagi, bir yetakchisidir. Yaxshi ustoz — farzandga berilgan eng katta boylik. Har bir ustoz shuni anglab yetmog'i kerak: menga ishonib topshirilgan bu bolani nafaqat o'qitishim, balki yuragim bilan asrashim kerak.

Ustoz nur sochsa — jamiyat yoritiladi.

Ustoz o‘rnak bo‘lsa — kelajak tiklanadi.

Ustoz yurak bilan ishlasa — avlod baxtli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adem Gunesh “Jazosiz tarbiya” “Yangi asr avlodi”,2023-yil
2. Grigoriy Petrov “Oq nilufarlar yurtida” “Factor press”,2021-yil
3. Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar” “Ma’naviyat” 2009-yil.

